

TURIZM SOHASI MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Muxlisa B. Baxtiyorova

ChDPU, talabasi

Diana Komilovna Ruzmetova

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), ChDPU

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri har tomonlama tahlil qilingan bo'lib, unda sohaning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) o'rni, ish o'rinlari yaratishdagi roli, infratuzilmaviy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi hamda milliy madaniyat va tarixiy merosni targ'ib qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada turizmning eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, hududiy tengsizliklarni kamaytirish va mamlakatning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlashdagi ijobiy ta'siri asosli dalillar bilan ko'rsatib o'tilgan. Ushbu jihatlar orqali turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanishga ham sezilarli hissa qo'shayotgani tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *turizm, iqtisod, kompleks, ijtimoiy, madaniy, ta'lim, turistik, siyosiy, turizm monokulturas, kompleks, servis, savdo.*

Turizm jahon iqtisodiyotida yuqori daromadli va jadal rivojlanib boruvchi sohalaridan hisoblanib, xalqaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, bu soha mehnattalab sanoat ish o'rinlarini yaratishda peshqadamlik qilayotganini, korxonalarining soni jihatdan turizm sohasining ustunligini, tabiiy va madaniy muhitni asrash hamda barqaror rivojlanishda asosiy rol o'ynayotganini hamda xalqlar va millatlararo totuvlikni ta'minlashga sezilarli hissasini qo'shayotganini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Oxirgi yillar davomida turizm jahon iqtisodiyotining eng tez o'sayotgan sektori va yirik eksport sanoatiga aylanib bormoqda. Jahon turizmi bo'yicha Manila deklaratsiyasida "Turizm faoliyat sifatida mamlakatlarlarning ijtimoiy, madaniy, ta'lim va iqtisodiy sohalariga va ularning xalqaro aloqalariga bevosita ta'siri ko'rsatib xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi" deya e'tirof etilgan. Bu esa turizmning jamiyat hayotiga chuqur kirib borayotganligi va ahamiyati ortib borayotganligini turizmga xos bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar funksiyalarni tahlil qilish orqali bilish mumkin. Turizmning iqtisodiy funksiyasi turistlarning talab va iste'moli orqali namoyon bo'ladi.

Doimiy yashash joyidan uzoqda bo'lgan turistlarning ehtiyojlari uch guruhga:

- asosiy;
- o'ziga xos;
- qo'shimcha ehtiyojlarga ajratiladi.

Turistlarning asosiy ehtiyojlari bu yashash, harakatlanish va ovqatlanish ehtiyojlaridir. Shundan kelib chiqib joylashtirish vositalari, ovqatlanish korxonalari va

transport korxonalarini xizmatlari turistik faoliyatni amalga oshirishda majburiy xisoblanadi. Joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, motellar, xususiy uylar va boshqalar) va ovqatlanish korxonalarini (restoran, kafe, barlar) turistlarning normal hayot kechirishlari uchun sharoit yaratadi. Transport vositalari ularni dam olish joyiga etkazilishini va marshrut ichidagi harakatlanishlarini ta'minlaydi. Asosiy xizmatlarni iste'mol qilish turistlarning sayohatga chiqishidan asosiy maqsadi bo'lgan taasurotlar, ko'ngil ochishlar, ishbilarmonlik uchrashuvlari, sanatoriya-kurort xizmatlari kabi o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat yaratib beradi. Sayohat davomida vujudga keladigan qo'shimcha ehtiyojlar servis, savdo, madaniy ko'ngilochar korxonalar xizmatlari bilan qondiriladi. Turistik iste'molning o'ziga xosligi shundaki, tovar iste'molchiga emas iste'molchi tovarga iste'molini amalga oshirish uchun keladi. Aynan iste'mol orqali turizm mamlakat yoki uning biror mintaqasi xo'jalik faoliyatini rag'batlantiradi. Mehmonxonalar, motellar, ovqatlanish korxonalarini, transport korxonalarini, sport inshootlari, madaniyat muassasalari daromadlarini oshiradi, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa, avtoxizmatlar va boshqalarning rivojlanishini rag'batlantiradi. Turistlarning bevosita va bilvosita xarajatlari turizmning mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotiga yalpi ta'sirini belgilab beradi. U turizmning mamlakat to'lov balansiga, aholi bandligi va mintaqaviy rivojlanishiga ta'siri orqali namoyon bo'ladi. To'lov balansini odatda ushbu mamlakatdan xorijdan kelib tushgan to'lovlar va muayyan muddatda (yil, chorak, oyda) mamlakatda amalga oshirilgan to'lovlarning nisbatini ifodalaydi. Tashqaridan amalga oshirilgan to'lovlarning ortib borishi mamlakat to'lov balansini aktiv va aksincha mamlakatda amalga oshirilgan to'lovlarning ortib borishi passiv to'lov balansini vujudga kelishiga olib keladi. To'lov balansiga turizmning ta'siri xorijiy turistlarning mamlakatda bo'lib turgan vaqtidagi xarajatlari va mamlakat turistlarining xorijda amalga oshirgan xarajatlari o'rtasidagi farq orqali aks etadi. To'lov balansining ijobiy balansini mamlakatning turizmdan olinadigan daromadining o'sishini ta'minlaydi va turistik industriya rivojlanishiga investitsiyalar kiritish masalalarida katta imkoniyatlar ochib beradi.

Turizmda mehnat resurslarining katta qismini mehmonxona va restoran xo'jaliklari, transport korxonalarini, turoperatorlar va turagentliklar qamrab oladi. Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi turistik faoliyat bilan birga savdo, qurilish, aloqa va boshqa sohalarda ham katta hajmdagi ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Shu sababli turizmda ularning turli xil o'zaro va boshqa sohalarda aloqalari tufayli hamda turizmda mehnatning o'ziga xos xususiyatlari (bandlik hajmining mavsumiyligi, xorijiy ishchi kuchini keng qo'llanilishi va boshqalar) bandlikni baholash qiyinlashmoqda. Turizm mintaqaviy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turistik korxonalarini aholi soni kam bo'lgan va individual kam rivojlangan alohida mintaqalarning mamlakat mintaqalari iqtisodiy rivojlanishini tenglashtirishda, mahalliy aholi oqimining katta shaharlarga ketishi, yangi ish o'rinlarni yaratish, mahalliy madaniy me'rosni qayta tiklash, me'moriy va madaniy yodgorliklarni qo'riqlash va tiklash, mahalliy mahsulotlarga talabni ko'paytirishda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy ma'noda kam rivojlangan va ajralib qolgan mintaqalarning mavjud bo'lishligini rag'batlantiruvchi turizm rivojlanishi zarurati va "Turizm monokulturasini

oʻrnatish havfi oʻrtasidagi nizolarni echish muammosi turizmni mintaqaviy rivojlantirishni kompleks rejalashtirish va bu jarayonni (hudud va resurslardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, mahalliy aholini savodini oshirish siyosatini yuritish) boshqarishning mos keladigan usullarini joriy etish orqali echish mumkin.

Turizm oʻziga chuqur ijtimoiy funksiyani ham oladi. Gap shundaki ilmiy-texnik taraqqiyot zamonaviy jamiyat hayotini tub manoda oʻzgartirib yubordi. Uning oʻziga hos xususiyati mehnatni intensivlashuvining oshishi, ishlab chiqarishning avtomatlashuvi va komp'yuterlashuvi, ishda va hayotda stress holatlarining koʻpayishi, shahar hayotining anonimligi, tabiatdan ajralib qolishlar hisoblanadi. Bularning barchasi insonda jismoniy va psixologik charchashning yigʻilishiga olib keladi bu esa hayotiy va mehnat faolligining pasayishiga olib keladi. Jahon turizmi boʻyicha Manila deklaratsiyasida “Turizmni ijtimoiy ahamiyati jismoniy maʼnaviy xissiy kuchlarini tiklash va toʻldirish kabi insonning eng muhim ehtiyojlarini qondirish imkoniyati bilan belgilanadi” - deb taʼkidlanadi¹. Turizm koʻp rejali va faol dam olish shakli sifatida hayotda va ishda sarflangan insonlarning ichki resurslari va kuchini maksimal toʻliq va har tomonlama yangilashga koʻmaklashadi. U odatdagi hayot tarzini, faoliyat turini oʻzgartirish, vaqtinchalik doimiy yashash joyini tark etish imkoniyatini beradi.

Turizmning ahamiyati insonlarning mehnat qobiliyati, kuchini tiklash, butun jamiyatning psixofiziologik resurslarini tiklashda turistik faoliyatning turli tuman va faolligida aks etadi. Insonning hayoti maʼlumki, uch fazaga - ish, uy va boʻsh vaqtga boʻlinadi. Soʻnggisining qimmati doimo ortib boradi. Turizm potensial isteʼmolchilarga turli xil va jozibador turistik sayohatlarni taklif qilish orqali boʻsh vaqtdan ratsional foydalanishga koʻmaklashadi. Turizmning gumanitar funksiyasi insonlarning har tomonlama rivojlanishi, kamol topishida foydalanish imkoniyatini beradi. Turizm insonlarning dunyoqarashini kengaytiradi, uning intellektini oshiradi va dam olishni atrofdagi olam bilan tanishuv shaklida amalga oshirish imkonini beradi. Sayohat insonga ruhiy va ahloqiy qadriyatlariga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish, bilimlarini jumladan kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi. Turizm insonning muloqot qilish va axborot almashishda kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga koʻmaklashadi. Doʻstlari va qarindoshlarinikiga tashrif buyurish, gumanitar va ishbilarmonlik aloqalarini oʻrnatish maqsadlarida amalga oshiriladigan sayohatlar ortib bormoqda.

Koʻpgina mamlakatlarning turizmni rivojlantirishga qiziqish sababi uning quyidagi oʻziga xos xususiyatlari xisoblanadi:

- zamonaviy sanoat tarmoqlariga nisbatan kam kapital talab qilishi;
- yuqori malakaga ega boʻlmagan shaxslar uchun ish oʻrinlarini yaratish orqali bandlikni taʼminlashda koʻmaklashishi;
- multiplikativ samara berishi; talabni vujudga keltirish bu esa iqtisodiyotning aralash sohalarida bandlik va daromadni oshiradi; iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantiradi;
- mintaqalar jumladan ajralib qolgan, rivojlangan sanoatga ega boʻlmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ijobiy taʼsiri; mahalliy jamoalarni xoʻjalik faoliyatiga jalb qilish orqali ularning yashash darajasini oshirish;

• xalqaro turizm rivojlantirilishi orqali xorijiy valyuta kirib kelishi va shu asnoda to'lov balansini saldosiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi.

Turizm bu iqtisodiy kompleks bo'lib, uning rivojlanishini jahon xo'jalik jarayonlari va munosabatlarini anglatadi. Boshqa tarafdin turizm iqtisodiy o'sishning muhim katalizatori bo'lib, mamlakatlar o'rtasida yalpi milliy mahsulotni taqsimlash kanali sifatida qatnashadi va tovar, xizmatlar olib chiqilishi kuzatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Трубин А. Развитие внутреннего туризма территорий: Монография / Москва: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К.”, 2021. -132 с.
2. Tuxliev I.S. va boshqalar. Turizm asoslari. Darslik. -Toshkent, 2014, - 388 b.
3. Бабкин А.В.Специальные виды туризма: учебное пособие – Ростов н/Д., 2008.117 с.
4. Xudoyarov A. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: Monografiya / Toshkent: OOO “Complex Print”, 2021. - 304 b
5. N.Xaydarov. Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi. Ochiq iqtisodiyot: sog'lom raqobat, biznes muhiti investitsion muhit jozibadorligi / Xalqaro amaliy anjuman / TDIU
6. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2017/10/31/central-asia-tourisma-driver-for-development>